

O'QUVCHILARNING YOZMA VA OG'ZAKI NUTQINI O'STIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING O'RNI

Suyarova Sarvinoz Abiyirqul qizi

*Toshkent davlat pedagogika universiteti o'zbek tili va adabiyoti fakulteti III kurs
talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o'quvchilarning nutqini o'stirish borasida bir qancha samarali metodlar tanishtiriladi. Innovatsion texnologiyalar, interfaol metodlarning nutq o'stirishdagi o'rni qay darajada ekanligi ochib beriladi. Metodlar orqali o'quvchilarning dars jarayonlarida faolligini oshirish va buning natijasida og'zaki va yozma nutqini yanada rivojlantirish usullari ko'rsatib o'tiladi. Kelgusi avlodni sog'lom fikrlaydigan va fikrini erkin bayon qila oladigan qilib tarbiyalash haqida xulosalar beriladi.*

Kalit so'zlar: *nutq madaniyati, samarali usullar, interfaol metod, innovatsion texnologiyalar, o'quvchi, yozma nutq, og'zaki nutq*

Zabon – insonga berilgan ne'mat, nutqimiz esa muammolarimizga yechim beruvchi, hayot yo'limizda uchragan qiyin vaziyatlarni muvaffaqiyatli bartaraf etishimizga yordamchi vositamiz. O'quvchilarda ana shu vositadan unumli foydalanish ko'nikmasini hosil qilish esa ona tili va adabiyot o'qituvchilarining vazifasi hisoblanadi. O'qituvchi so'zlarni nutqda to'g'ri qo'llash, to'g'ri talaffuzi qilish, ortiqcha va ma'nosiz so'zlashdan qochish, sinonimlardan o'rinni foydalana olish, kishilarni so'z sehri bilan sehrlashni o'quvchilarga o'rgatishi lozim. O'quvchilarning nutqi qanchalik ravon va ta'sirli bo'lsa, o'ylagan fikrlarini to'liq va tushunarli ifodalab bera olishadi. Nutqni o'stirish uchun esa, avvalo, o'quvchilar tafakkurini rivojlantirish, bilim darajasini oshirish lozim. Chunki tafakkur va til bir biriga uzviy bog'liq. O'quvchilar berilayotgan bilimni anglashsa, tushunib tafakkur qila olishsa-yu uni tili – nutqi orqali boshqalarga, tushuntirib bera olmasa, hayotda qo'llay olmasa bunday bilim uning hayotiga ijobiy ta'sir, foydasi bo'lmaydi. Ba'zi o'quvchilarning yozma, ba'zi o'quvchilarning og'zaki nutqida biroz passivlik kuzatiladi. Ulardagi nutq imkoniyatlarini ochib berish, nutqiy kompetensiyani rivojlantirish, aktiv holatga tortish o'qituvchining mahoratiga bog'liq. O'qituvchi dars jarayonida ta'lim-tarbiyani singdirish uchun qulay atmosfera va metodlar topa bilsa, ko'zlangan natijaga erisha oladi. Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning: „Maktabda o'qitish metodikasi o'zgarmasa, ta'lim sifati ham, mazmuni ham, muhiti ham o'zgarmaydi“, - degan so'zlari ham bejiz emas.

Barchamiz bilamizki, bugungi kunda innovatsion texnologiyalar barcha sohalarga kirib bormoqda. Zamon bilan hamnafas yashamoqchi bo'lgan har qanday kasb egasi innovatsion yangiliklarga „labbay“ deb javob qiladi, undan o'z kasbiy faoliyati davomida samarali foydalanadi. Shu jumladan, o'qituvchilar ham darslarni qiziqarli tashkil etishda innovatani olib kirishmoqda. O'qitish vositadagi



innovatsiyaga elektrondoska, multimedialar, audio kitoblarni, o'qitish turlaridagi innovatsiyaga rasmiy ta'lim, norasmiy ta'lim, interfaol ta'lim, eviristik ta'lim, informal ta'lim, integratsiyalangan ta'lim kabilarni, o'qitish metodlaridagi innovatsiyaga interaktiv metod, aktiv metod, passiv metodlarni misol qilishimiz mumkin. Ushbu innovatsiyalar, albatta, ta'lim sifati yaxshilanishiga, o'quvchining darsga qiziqishi ortishiga yordam beradi. Ayniqsa, innovatsion metodlar o'quvchilarga olgan bilimni qo'llash usullarini ko'rsatadi, qobiliyatlarini rivojlantiradi, ularni bir qobiqda chiqaradi, harakatga undaydi. Shunday interaktiv metodlar, turli tafakkurni rivojlantiruvchi metodik o'yinlar orqali o'quvchilar nutqini o'stirishni birlamchi usullardan deb ko'rsatishimiz mumkin. Tafakkur rivojlanishi natijasida nutq ham o'sadi. Bunday metodlarga bir nechta misollar keltirib o'tishga harakat qilaman.

„Fikrlar zanjiri“ metodi o'quvchilarning ham taffakkurini, ham nutqini, ham xotirasini o'stirishga xizmat qiladi. Ushbu metod og'zaki olib boriladi. O'nta o'quvchidan tashkil topgan har bir guruhga o'qituvchi tomonidan alohida-alohida mavzu beriladi. (Yuqori sinf o'quvchilarining har biri kamida oltita so'zdan iborat, leksik, grammatik xatolarsiz o'zidan oldingi guruhdoshining gapiga bog'langan gap tuzishi kerak. O'zidan oldin nechta gap tuzilgan bo'lsa, o'sha gaplarni takrorlab, so'ngida o'zining gapini qo'shishi lozim bo'ladi. Qarabsizki, o'nta gapdan iborat bog'lanishli, mazmundor matncha paydo bo'ladi:

Masalan, guruhga „Orzu“ mavzusida matn tuzish topshirig'i o'qituvchi tomonidan berildi. Birinchi o'quvchi matnga kirish qilib beradi: „Dunyoda inson zoti borki, umri davomida katta-kichik orzular qiladi“. Ikkinchi o'quvchi uning fikrini davom ettiradi: „Dunyoda inson zoti borki, umri davomida katta-kichik orzular qiladi. Men ham bolaligidan beri ko'plab orzular qilganman va ularning bir qanchasiga erishganman“. O'yin shu tarzda davom etib o'ninchi ishtirokchining mavzuni xulosalashi bilan yakunlanadi. Bu o'quvchilarda mavjud vaziyatga mos tezkor fikrlash, tinglash, so'zlash qobiliyatlarini rivojlantiradi. O'quvchilarning darsda faolligini, jamoa bilan ishlash, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini oshiradi.

O'quvchilar nutqini va ijodkorligini o'stirishga xizmat qiluvchi yana bir interfaol metod - „So'zlarni sozla“ metodi. Bu metodda o'qituvchi o'quvchilarga ma'nosi bir biridan uzoq to'rta so'z aytadi. O'quvchilar bu so'zlarni qatnashtirib daftarlariga kamida sakkizta so'zdan tashkil topgan matn tuzishlari lozim. Tuzilgan gaplarni o'qituvchi mazmuniga, imlosiga, bog'lanishiga e'tibor qaratib o'quvchilarni rag'batlantiradi. Bu interfaol metod ishtirokchilarida yozma nutqning rivojlanishi, mustaqil va ijodiy fikr yuritish, erkin bayon qilish ko'nikmalari hosil bo'ladi.

Darslar davomida sinonimlar, omonimlar, antonimlar, izohli lug'atlari bilan ishlash ham o'quvchilar nutqini go'zallashtirishga yordam beruvchi omillardandir. Sinonimlar lug'ati bilan ishlash orqali o'quvchilar sinonim so'zlarning ijobiy va salbiy bo'yqadorligiga qarab nutqiy vaziyatga mosini tanlashni, so'zlar takroridan qochishni, o'rganib olishadi. Antonimlar lug'ati ustida ishlash esa yozma nutq jarayonlarida mavzuning ijobiy va salbiy tomonlarini ochib berishda mazmunli fikr bildirish uchun xizmat qiladi. Izohli lug'atlardagi so'zlar bilan tanishish o'quvchilarning so'z boyligi oshishiga, fikrlar oqimini yetarlicha so'zlar bilan boshqarishiga ko'mak beradi. Shunday ekan, lug'atlar bilan bog'liq turli interaktiv o'yinlarni ham o'tkazib turish



foydadan holi bo‘lmaydi. „Munosib so‘z“ metodi shular jumlasidandir. Bu interaktiv metodda matn ichida tushirib qoldirilgan so‘zlar o‘rniga berilgan bir qator sinonimlardan mosini qo‘yish kerak bo‘ladi. „Rangdor so‘zlar“ metodida esa salbiy bo‘yoqdor so‘zlarni qizil rangli doira ichiga, ijobiy bo‘yoqdor so‘zlarni yashil doira ichiga, dominant so‘zlarni esa sariq doira ichiga to‘g‘ri ajratib berishi va ushbu so‘zlardan birini qatnashtirib gap tuzib berishi va uni izohlab, tahlil etishi lozim bo‘ladi. Bu metod ham o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirishi natijasida og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirishga, fikrini boshqalar oldida bildirishni o‘rgatishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, bilimi bo‘lsa-yu uni boshqalarga bildirish quroli – nutqi ishlamasa, bu olingan bilim o‘ziga ham, boshqalarga ham naf keltirmaydi. Innovatsion metodlar ana shu qurolni yaxshi ishlatishga, o‘quvchining haqiqiy „men“ini o‘ziga ham, boshqalarga ham ochib berishga, faqatgina bilim berib qolmay, uni amaliyotda qo‘llash yo‘llarini ham o‘rgatishga qaratilgan. Shunday ekan har bir ona tili va adabiyot o‘qituvchisi yelkasidagi kasbiy vazifasining mohiyatini chuqur anglagan holda turli innovatsion metodlar yordamida, o‘quvchilarni tinimsiz o‘qishga, harakatga undab turishi, ularni ma‘lum bir qolipda qotib qolishdan asrashi, fikr doiralarini kengaytirishga katta e‘tibor qaratishi, nutqini o‘stirishi, so‘zlashda mas‘uliyatli bo‘lishni uqtirishi zarur. Zero, birgina so‘z inson hayotini o‘zgartirib yuborishga qodir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. „Ta‘lim-tarbiya tizimi: taraqqiyotning yangi bosqichi“ mavzusidagi ma‘ruzasi. Toshkent-2020.
2. Hamidov Abdumalik. O‘qituvchi nutqi madaniyati. Termiz-2013
3. O‘rinboyev B. Musayev A. O‘ralova N. O‘zbek nutqi madaniyati asoslari. Jizzax-2023
4. Yuldasheva Dilorom Nigmatovna. O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi. Buxoro-2021